



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 422 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
Alibekova Mahzuna	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
Ruzmetova D. A.	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
Saydanova Dilafuz Sadirdinovna	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
Akhmatova Munisa Orif qizi	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevena	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoda, Keldiyorova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni	278
Sultonova Marxabo	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	283
Akramova Fotimabonu Kurbonovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	288
Axmedov Muslimjon Usmonovich	
Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	295
Djumabayeva Muqaddas	



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni.....	314
<i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	318
<i>Jovliyev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i>	
Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o‘shishning mohiyati	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultonov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahrlining biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi.....	365
<i>To‘xtamurodova Feruza</i>	
Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....	369
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish	373
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	378
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	383
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	
MTMgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.....	389
<i>Boymurodova Surayyo Eshqvat qizi</i>	
Musiqa madaniyati asosida deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli va samaradorligi	393
<i>Jabborova Muattar Xatamovna</i>	

Uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish.....	398
Mamadaliyeva Barnoxon O'ktamovna	
Focusing on the Practical and Technical Aspects of Dutar Performance and Enhancing this Process.....	403
Muyassarxon Adiljanovna Achildieva, Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining professional kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	409
Olloberganova Fazilat Tangriberganovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining vizual kompetensiyalarini rivojlantirishda dizayn tafakkuriga asoslangan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish	415
Shomurodov Oybek Norqulovich	



MTMGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY- HISSIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Boymurodova Surayyo Eshquvat qizi

ORCID: 0009-0006-8683-7259

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi (5-7 yoshli) bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida tengdoshlari va kattalar bilan muloqotning o'rni, hissiy intellekt va ijtimoiylashuv jarayonlarining ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, bolalarda hamkorlik, empatiya, muloqot madaniyati va nizolarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metodlar hamda yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha katta yosh, ijtimoiy-hissiy munosabatlar, ijtimoiylashuv, hissiy intellekt, empatiya, muloqot, pedagogik imkoniyatlar, hamkorlik.

Abstract: This article examines the characteristics and psychological-pedagogical opportunities for developing social-emotional relationships in older preschool children (aged 5-7). Based on scientific literature, it analyzes the role of communication with peers and adults in the development of a child's personality, as well as the importance of emotional intelligence and socialization processes. The article also presents effective pedagogical methods and approaches aimed at fostering children's cooperation, empathy, communication culture, and constructive conflict resolution skills.

Key words: older preschool age, social-emotional relationships, socialization, emotional intelligence, empathy, communication, psychological and pedagogical opportunities, cooperation.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности и психолого-педагогические возможности формирования социально-эмоциональных отношений у детей старшего дошкольного возраста (5-7 лет). На основе научных источников анализируются роль общения со сверстниками и взрослыми в становлении личности ребёнка, а также значение эмоционального интеллекта и процессов социализации. Особое внимание уделено эффективным педагогическим методам и подходам, направленным на развитие у детей навыков сотрудничества, эмпатии, культуры общения и конструктивного разрешения конфликтов.

Ключевые слова: старший дошкольный возраст, социально-эмоциональные отношения, социализация, эмоциональный интеллект, эмпатия, общение, психолого-педагогические возможности, сотрудничество.

KIRISH

Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning ustuvor vazifalaridan biri har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy faol va jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ushbu jarayonning poydevori aynan maktabgacha ta'lim bosqichida, ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi (5-7 yoshli) bolalarda shakllanadi. Shu bois bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlar va ko'nikmalarni erta yoshdan rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha katta yosh davri bolaning o'z his-tuyg'ularini anglay boshlashi, tengdoshlari va kattalar bilan faol muloqotga kirishishi, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirishi bilan tavsiflanadi.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, jonli muloqot imkoniyatlari qisqarib borayotgan hozirgi sharoitda bolalarda empatiya, hamkorlik, hissiyotlarni boshqarish hamda nizolarni konstruktiv hal etish kabi ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati yanada ortib bormoqda. Mazkur kompetensiyalar bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi, shaxslararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishi va jamiyatga moslashishida muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarning ijtimoiylashuvi va hissiy rivojlanishi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev va D. B. Elkonin bolalik davridagi muloqot hamda o'yin faoliyatining shaxs rivojlanishidagi o'rnini ilmiy asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy muhit, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning psixik rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonlik olimlardan E. G'oziyev, V. Karimova, P. Yusupova va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, shaxs rivojlanishi hamda tarbiyaviy jarayonlarning ilmiy asoslarini yoritganlar. Biroq zamonaviy ta'lim talablari nuqtai nazaridan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni tizimli ravishda shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, innovatsion metodlari va samarali texnologiyalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks pedagogik-psixologik metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oldi. Mavzuga oid falsafiy, psixologik va pedagogik ilmiy adabiyotlar, maktabgacha ta'limga oid davlat me'yoriy hujjatlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Muammoning o'rganilganlik darajasini aniqlashda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va modellashirish metodlaridan foydalanildi. Bolalarning ijtimoiy-hissiy munosabatlari hamda muloqot ko'nikmalarini baholash maqsadida quyidagi metodikalar qo'llanildi:

1. **Tizimli kuzatish metodi** – bolalarning erkin faoliyati, syujetli-rolli o'yinlari va mashg'ulotlar jarayonida tengdoshlari hamda tarbiyachilar bilan o'zaro munosabatlari (hamkorlik, empatiya, tortinchoqlik, tajovuzkorlik va boshqalar) maxsus kuzatuv xaritalari asosida tahlil qilindi.
2. **“Rasmlardagi hissiyotlar” metodikasi** (G. A. Uruntaeva, Yu. A. Afonkina) – bolalarning asosiy emosional holatlarni (quvonch, qayg'u, qo'rquv va g'azab) tanishi, farqlashi hamda ularning sabablarini tushunish darajasini aniqlashda qo'llanildi.
3. **Sotsiometrik diagnostika** (“Ikki uy” va “Kapitan” metodikalari) – bolalarning guruhdagi ijtimoiy mavqei, shaxslararo munosabatlari hamda jamoa tomonidan qabul qilinish darajasini aniqlashga xizmat qildi.
4. **Suhbat va proyektiv metodlar** – muammoli vaziyat aks ettirilgan rasmlar (“O'yinchoqni bo'lishish”, “Yig'layotgan do'st” va boshqalar) asosida bolalarning axloqiy me'yorlar va ijtimoiy xulq-atvor haqidagi tasavvurlari o'rganildi.
5. **So'rovnoma va intervyu** – tarbiyachilar hamda ota-onalar ishtirokida bolalarning oiladagi va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ijtimoiy-hissiy moslashuv darajasini aniqlash maqsadida o'tkazildi.
6. **Eksperimental-shakllantiruvchi metodlar.**

Bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida quyidagi pedagogik texnologiyalar qo'llanildi:

1. **Syujetli-rolli va rejissyorlik o'yinlari** – bolalarda ijtimoiy rollarni anglash, hamkorlik qilish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirildi.
2. **Psixogimnastika va etyudlar** (M. I. Chistyakova metodikasi asosida) – mimika, pantomimika va tana harakatlari orqali his-tuyg'ularni ifodalash hamda emosional zo'riqishni kamaytirishga xizmat qildi.
3. **Ertakoterapiya** – axloqiy va hissiy mazmundagi ertaklarni o'qish, muhokama qilish hamda qahramonlarning xatti-harakatlari va ichki kechinmalarini tahlil qilish orqali empatiya va ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratildi.

Matematik-statistik metodlar. Aniqlovchi va nazorat bosqichlarida olingan natijalarni qayta ishlash va guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ishonchligini aniqlash maqsadida foizli tahlil hamda Studentning t-mezone asosida matematik-statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan aniqlovchi tajriba-sinov natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy ko'nikmalari rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, bolalarning 22 foizi boshqalarning his-tuyg'ularini to'g'ri anglash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va nizoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha yuqori darajani namoyon etdi. Tadqiqot ishtirok-



chilarining asosiy qismi (54 foiz) o'rta darajani ko'rsatib, ularda empatiya elementlari shakllangan bo'lsa-da, rolli o'yinlar va jamoaviy faoliyat davomida o'z manfaatlarini ustun qo'yish, his-tuyg'ularini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelish holatlari kuzatildi. Qolgan 24 foiz bolalarda esa ijtimoiy-hissiy munosabatlarga kirishishda tortinchoqlik, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar yoki aksincha, tajovuzkor xulq-atvor belgilarining mavjudligi aniqlandi.

Shakllantiruvchi bosqichda maxsus ishlab chiqilgan interaktiv o'yinlar, psixogimnastika mashg'ulotlari hamda ertakoterapiya elementlari tizimli ravishda qo'llanilgach, nazorat bosqichida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tajriba guruhi bolalarida emotsional holatlarni farqlash va ularga mos munosabat bildirish ko'rsatkichi 22 foizdan 48 foizgacha oshdi. Shu bilan birga, o'yinchoqlarni bo'lishish, navbat kutish, tengdoshlari bilan kelishuvga erishish va nizolarni muloqot orqali hal etish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Past darajadagi ko'rsatkich esa 24 foizdan 6 foizgacha kamaydi. Olingan natijalar Styudentning t-mezoni yordamida matematik-statistik jihatdan tahlil qilinib, qo'llanilgan pedagogik metodlarning samaradorligi statistik jihatdan ishonchli ekanligi tasdiqlandi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi ularning kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy kamolotida muhim o'rin egallaydi. Dastlabki diagnostika natijalari bolalarning aksariyati ijtimoiy me'yorlarni nazariy jihatdan bilishiga qaramay, amaliy vaziyatlarda, ayniqsa, o'yinchoqlarni taqsimlash, navbat kutish yoki muvaffaqiyatsizlikka duch kelish kabi holatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatdi. Bu esa zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar ta'sirining kuchayishi va jonli muloqot imkoniyatlarining qisqarishi natijasida bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan ijobiy natijalar L. S. Vigotskiyning bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning yetakchi o'rin tutishi haqidagi nazariy qarashlarini yana bir bor tasdiqladi. Psixogimnastika mashqlari va syujetli-rolli o'yinlar bolalarga nafaqat ijtimoiy qoidalarni o'rgatdi, balki ularni amaliy faoliyat orqali his etish va mustahkamlash imkonini berdi. Ertakoterapiya esa qahramonlarning ruhiy kechinmalarini tahlil qilish orqali bolalarda empatiya, hamdardlik va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tahlillar yana bir muhim omilni – oilaviy muhitning ta'sirini ham ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ota-onalar bilan olib borilgan hamkorlik ishlari bolalarning guruhdagi muloqoti va o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur holat ijtimoiy-hissiy munosabatlarni samarali rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va bola o'rtasidagi uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarning o'z-o'zidan shakllanmasligini, balki maqsadli, tizimli va yosh xususiyatlariga mos pedagogik yondashuv asosida rivojlantirilishini ko'rsatdi. Qo'llanilgan metodikalar hissiy intellekt, empatiya, hamkorlik va konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, maktabgacha katta yosh (5-7 yosh) bolaning ijtimoiylashuvi, empatiya, hissiy intellekt va shaxslararo muloqot ko'nikmalari shakllanadigan eng muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda egallangan ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar bolaning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, aniqlovchi tajriba-sinov natijalari bolalarning 54 foizida ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar o'rta darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Ular ijtimoiy me'yorlarni bilsalar-da, real muloqot va o'yin jarayonlarida his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning fikrini inobatga olish hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi.

Uchinchidan, interaktiv o'yinlar, psixogimnastika va ertakoterapiyaga asoslangan pedagogik metodika bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tajriba guruhi bolalarida yuqori darajadagi ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar 22 foizdan 48 foizgacha oshdi, past darajadagi ko'rsatkich esa 24 foizdan 6 foizgacha kamaydi.

To'rtinchidan, bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni samarali shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va tarbiyachilar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishni talab etadi. Ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish ham ushbu jarayonning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik faoliyat ularning hissiy intellekti, empatiya, hamkorlik va muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019-yil. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. "Ilm yo'li" maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2018.
3. G'oziyev E. G'. Tarbiya psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. – 190 b.
4. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.
5. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 264 b.
6. Uruntaeva G. A., Afonkina Yu. A. Praktikum po detskoj psixologii. – Moskva: Prosveshcheniye, 2001. – 304 s.
7. Vigotskiy L. S. Myshleniye i rech // Sobraniye sochineniy. V 6 t. T. 2. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 504 s.
8. Chistyakova M. I. Psixogimnastika / Pod red. M. I. Buyanova. – Moskva: Prosveshcheniye, 1995. – 160 s.
9. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2005. – 384 p.
10. Denham S. A. Emotional Development in Young Children. – New York: Guilford Press, 1998. – 260 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.